



OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

**Olimjonova Oynura Otabek qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili va adabiyoti*

*1-bosqich talabasi*

[olimjonovaoynura5@gmail.com](mailto:olimjonovaoynura5@gmail.com)

**Anvarbekova Oydinoy Zafarbek qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*PhD mustaqil izlanuvchi*

[anvarbekovaoydin92@gmail.com](mailto:anvarbekovaoydin92@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ommaviy madaniyat tushunchasi, uning shakllanishi va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yoshlar ongiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlari, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy pozitsiyalariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, kino, reklama, va musiqa vositalari orqali shakllanuvchi ommaviy madaniyat namunalarining yosh avlodga ta'sir mexanizmlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy madaniyat, madaniy globalizatsiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar ongiga ta'siri, madaniyat va ong.

**Abstract:** This article analyzes the concept of mass culture, its formation, and its influence on youth consciousness through modern information technologies. It explores both the positive and negative aspects of mass culture and its impact on the worldview, values, and moral positions of young people. The mechanisms by which mass culture shaped through social networks, cinema, advertising, and music affects the younger generation are also examined.

**Key words:** Mass culture, cultural globalization, information technologies, social networks, influence on youth consciousness, culture and mindset.



***Аннотация:** В данной статье проанализированы понятие массовой культуры, её формирование и влияние на сознание молодежи через современные информационные технологии. В статье всесторонне освещены как положительные, так и отрицательные стороны массовой культуры, а также её воздействие на мировоззрение, ценности и нравственные позиции молодого поколения. Кроме того, рассмотрены механизмы влияния образцов массовой культуры, формирующихся через социальные сети, кино, рекламу и музыку, на молодёжь.*

***Ключевые слова:** Массовая культура, молодёжь, культурная глобализация, информационные технологии, социальные сети, моральные ценности.*

Bugungi globallashuv, raqamli inqilob va informatsion portlash davrida inson hayoti bilan bog'liq barcha sohalar ommaviy madaniyat ta'sirida shakllanmoqda. Ayniqsa, yoshlar ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, kino, musiqa va reklama vositalari orqali uzatilayotgan madaniy oqimlarga bevosita duch keladilar. Bu holat yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, hayotga bo'lgan munosabatlari, axloqiy pozitsiyalari va o'zlikni anglash jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Ommaviy madaniyat deganda keng ommaga mo'ljallangan, tijorat maqsadida yaratilgan va asosan ko'ngilochar xarakterga ega bo'lgan madaniy mahsulotlar tushuniladi. U XX asrda ommaviy axborot vositalari, xususan televideniye, radio va matbuot orqali shakllana boshladi. XXI asrga kelib esa internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy madaniyatning tarqalish tezligi keskin ortdi. Axborot texnologiyalari, ayniqsa mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar vositasida yoshlar har kuni yuzlab madaniy xabarlar, videolar, suratlar va kontentlar bilan to'qnash keladi. Ular orasida o'z milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan g'oyalar, turmush tarzi, modalar va til unsurlari ham mavjud. Bu esa yoshlarning o'zlik identiteti, milliy ong va ruhiy holatiga tahdid solishi mumkin. Ommaviy madaniyat – bu zamonaviy jamiyatda axborot vositalari orqali tarqaladigan, keng omma tomonidan iste'mol qilinadigan madaniy mahsulotlar yig'indisidir. Bu madaniyatning yoshlar ongiga ko'rsatadigan kuchli ta'siri bor: u ularning dunyoqarashi,



qadriyatlari, axloqiy pozitsiyasi, hatto kiyinish va o'ylash tarzini shakllantiradi. Ammo bu ta'sir har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Salbiy ta'sirlar yoshlarni milliy qadriyatlardan uzoqlashtiradi, iste'molchilik ongini shakllantiradi, axloqiy va ruhiy buzuvchiliklarga olib keladi. Shu sababli ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlaridan himoyalash va yoshlar ongini sog'lom, ma'naviy boy yo'nalishda shakllantirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Yoshlarni axborotlarni tanlab, tahlil qilib qabul qilishga o'rgatish, mahalliy madaniy tadbirlar, festivallar, an'anaviy bayramlarni yoshlar ishtirokida o'tkazish, ma'rifatli, bilimli, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxslarni ommaviy qahramon sifatida targ'ib qilish, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati ota-ona tomonidan kuzatib borilishi, – ularni ommaviy madaniyat manipulyatsiyasidan himoya qilishning eng samarali yo'lidir.

**Ijobiy jihatlari:**

Dunyoviy madaniyat bilan tanishtiradi;

Estetik didni shakllantirishga yordam beradi;

Yangi texnologiyalar va yangiliklar haqida tezkor axborot beradi;

Axborotga bo'lgan ochiqlikni kuchaytiradi.

**Salbiy jihatlari:**

Madaniyatsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlar ko'p;

Haddan tashqari iste'molchilikni targ'ib qiladi;

Milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik uyg'otadi;

Zo'ravonlik, axloqsizlik, ataylab yaratilgan mashhurlik (shou-biznes) targ'ib qilinadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda blogerlar, mashhur shaxslar, "trend"lar orqali ommaviy madaniyat namunalarining yoshlar ongiga ta'siri kuchaymoqda. Masalan: TikTok yoki Instagram orqali tarqalgan qisqa videolar ma'lum bir obraz yoki xatti-harakatni ommalashtiradi;

Filmlar va seriallar g'arbona hayot tarzini ideal sifatida ko'rsatadi;

Musiqali kliplari va reklama vositalari orqali modalar, brendlar, hayotga nisbatan yengil qarash targ'ib qilinadi.





Bu holatlarning barchasi yosh avlodning tafakkuri, estetik qarashlari va ijtimoiy xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yosh avlod, ayniqsa 12–25 yosh oralig'idagi guruh, psixologik va ijtimoiy shakllanish bosqichida bo'lganliklari sababli, ommaviy madaniyatning eng asosiy auditoriyasi hisoblanadi. Ular o'z shaxsiyligini shakllantirmoqda, yetakchilarga (idol, influencer) ergashishga moyil, ommabop bo'lishni xohlaydi, g'arb madaniyatiga qiziqadi. Natijada, ular tez-tez ommaviy madaniyatning moda, til, xulq-atvor, urf-odat va hatto dunyoqarash darajasidagi ta'sirlariga ochiq bo'lishadi. Ommaviy madaniyat yoshlarning hayotga, jamiyatga va dunyodagi hodisalarga bo'lgan qarashlariga bevosita ta'sir qiladi. Bu ta'sir ko'pincha quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

G'arb madaniyatini ideal deb bilish (masalan, amerikaliklar yashash tarzini orzu qilish);

Real hayot muammolaridan ko'ra virtual "go'zal hayot"ga ishonish;

Yengil fikrlash, yuzaki yondashuv kuchayishi.

Natijada, yoshlar milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'anaviy madaniyatga nisbatan befarq bo'lib qoladi. Ular ommaviy madaniyatning turli xil ko'rinishlariga taqlid qila boshlaydilar. Bu esa o'zlari bilmagan holda ularga ko'r-ko'rona ergashib, real hayotdan ajrab qolayotganlarini sezmay qoladilar.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy madaniyat – bu zamonaviy hayotning ajralmas qismidir. Ommaviy madaniyat zamonaviy yoshlar ongiga ko'plab yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi. U ijobiy imkoniyatlar (axborotga ochiqlik, ijodkorlik, global fikrlash) bilan bir qatorda, salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Uning butkul rad etilishi mumkin emas, lekin uni tanqidiy tahlil qilgan holda, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat vakillari yoshlarni milliy qadriyatlar, sog'lom dunyoqarash va axloqiy me'yorlar asosida tarbiyalashga e'tibor qaratishlari muhimdir. Ommaviy madaniyatning ijobiy tomonlarini o'zlashtirib, salbiy ta'siridan himoyalanih esa yoshlarning madaniy ong darajasiga bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmatullayeva O. GLOBALLASHUV DAVRIDA OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA TA'SIRI //Hayka i innovatsiya. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 117-120.
2. S hohsanam U., Muslimaxon A., Sharifaxon M. OMMAVIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR INQIROZI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2025. – T. 4. – №. 39. – C. 334-340.
3. Mamasidiq T., Bozorboeyva O. GLOBALLASHUV JARAYONIDA OMMAVIY MADANIYATNING TA'SIRI //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 62. – №. 2. – C. 26-28.
4. Macdonald D. A theory of mass culture //Diogenes. – 1953. – T. 1. – №. 3. – C. 1-17.
5. J umayeva S. S., qizi Sodiqova S. S. YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRIDAN HIMOYA QILISHNING ASOSIY VOSITALARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 23. – C. 55-61
6. Ibragimov S. “OMMAVIY MADANIYAT” TUSHUNCHASI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TAHDIDI //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 102-109.
7. Ivy M. Formations of mass culture //Postwar Japan as history. – 1993. – C. 239-258.